

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLER VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOIYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARNING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafroz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

AZIZIDDIN NASAFI'S "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" IS AN IMPORTANT SOURCE ON SUFICIAL PHILOSOPHY

Narziyev Zubaydillo Ibodilloyevich

Bukhara State Pedagogical Institute

Associate Professor of the Department of "Social Sciences",

Doctor of Philosophy in Philosophical Sciences (PhD)

Abstract. This article provides information about the work "Zubdat ul-haqoyiq" by our great Sufi compatriot, scholar, physician, and philosopher Aziziddin Nasafi, who made a significant contribution to the development of medieval Eastern philosophy, particularly Sufi philosophy, with his unique spiritual heritage and views. The article analyzes the composition of this work, the main Sufi-philosophical topics addressed in its content, the study of the work, and opinions about its translations.

Keywords: Aziziddin Nasafi, Risolayi mabda' va miod, Zubdat ul-haqoyiq, G'oyatud daqoiq Dar tarjimayi Zubdat ul-haqoiq, olami kubro, olami sug'ro, vahdat ul-vujud, uruj, nuzul, maqom.

AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA

Narziyev Zubaydillo Ibodilloyevich

Buxoro davlat pedagogika instituti

"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti,

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

<https://orcid.org/0000-0003-0401-2992>

E-mail: zubaydillonarziyev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'rta asr Sharq falsafasi, xususan, tasavvuf falsafasining taraqqiyotiga o'zining betakror ma'naviy merosi va qarashlari bilan munosib hissa qo'shgan buyuk mutasavvif vatandoshimiz, alloma, tabib hamda faylasuf bo'lib hisoblangan Aziziddin Nasafiyning "Zubdat ul - haqoyiq" asari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, mazkur asarning yozilishi, uning mazmunida e'tibor qaratilgan asosiy tasavvufiy-falsafiy mavzular, asarning o'rganilishi va uning tarjimalari haqidagi fikrlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Aziziddin Nasafi, Risolai mabda' va miod, Zubdat ul-haqoyiq, G'oyatud-daqoiq Dar tarjimai Zubdat ul-haqoiq, olami kubro, olami sug'ro, vahdat ul - vujud, uruj, nuzul, maqom.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N29>

Kirish. Aziziddin Nasafi o'zining boshqa asarlarida ham, dastlab "Risolai mabda' va miod" nomi bilan mashhur bo'lgan, keyinchalik muridlar tomonidan "Zubdat ul-haqoyiq" deb atalgan ushbu asarida tasavvufning muhim masalalarini juda aniq va sodda tilda ifodalagan. Tasavvuf ilmini "qol" bilan ifodalash va izohlash mumkin. Aziziddin Nasafi "Zubdat ul-haqoyiq"(Haqiqatlar qaymog'i) asarini "Risolai mabda' va miod" asarining kichraytirilgan nusxasi tarzida yozgan. Buning sababi sifatida bir guruh darveshlarning mutasavvifdan olami kubro(kubro olami) va (olami sug'ro)sug'ro olami, uning ma'rifati, mabda'(ibtido) hamda miod(intiho)haqida bir risola tartib berishni berishni so'rashgani, mabda' va miod xilma-xilmi

yoki hammasi bittami, uruj va nuzul nima, avval boshdan nuzul bo'lib, keyin uruj sodir bo'lganmi yoki aksincha bo'lganmi va yuqorida keltirilgan masalalarga oid o'z davrida mavjud bo'lgan oqimlarning fikr mulohazalarini batafsil, xolisona bayon etishni so'rashganini keltirish o'rinlidir. Ayni shu masalada mutasavvif "Zubdat ul-haqoyiq" asarining muqaddimasida quyidagi "...Ba'd (endi) bu bandai ojiz, faqirul-fuqaro Aziz binni Muhammad an-Nasafiy deydi, bir guruh darveshlar bu faqiru haqirdan olami kubro va olami sug'ro ma'rifati haqida mabda' va miod haqida bir risola bitishimni va unda mabda' (boshlanish) xilma-xilmi yoki u hammasi bo'lib bittami, har birini miodi (qaytishi) xilma-xilmi yoki qaytish faqat bittami; nuzul (tushish) nima va uruj (ko'tarilish) nima; avval boshda nuzul bo'lib, keyin uruj bo'lganmi yoki avval boshda uruj bo'lib, so'ngra nuzul sodir bo'lganmi, degan masalalarni tushuntirib berishimni iltimos qildilar. Ular yana barcha mavjud toifalarning fikr-mulohazalarini bayon eting, ular fikrini xolisona bayon etib bering, birortasini ham afzal hisoblamay, har biri nima degan bo'lsa, shuni keltiring, deb so'radilar. Men ularning iltimosini qabul qilib, ular so'ragan narsalarni bir joyga to'pladim. Bu majmuani men "Risolai mabda' va miod" (Boshlanish va qaytish risolasi) deb nomladim. Ammo ba'zi birlar bu asarni o'qib, menga: kitobingiz cho'zilib ketibdi, so'zlaringiz haddan ziyod ravshan (soddalashgan), u xos kishilarga ham, avomga ham tushunarlidir, shunday bo'lsaki, (kitob) xos kishilarga tushunarli bo'lib, boshqalar undan naf ko'rmasa, dedilar. Men bu iltimosni qondirish maqsadida "Risolai mabda' va miod"ni qisqartirdim va muxtasarni "Zubdatul haqoyiq" ("Haqiqatlar qaymog'i") deb nomladim. Va Xalloqi olamdan madad so'radim, toki adashish va xatolardan meni asrasin, "darhaqiqat, u neki xohlasa, qilishga qodir va itoat etishga loyiq zotdir" (Hadisi sharifdan)"[3:110]- mazmunidagi fikrlarni ma'lum qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimli yondashuv, retrospektiv tahlil, mantiqiylik va vorisiylik, dialektik, germeneytik, qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nasafiyning "Risolai mabda' va miod" nomli asarining qisqacha mazmuni bo'lgan "Zubdat al-haqoyiq" asari ikki bobdan iborat tartibda yozilgan.[1:9] Har ikkala bobning uchta kichik sarlavhasi mavjud. "Zubdat ul haqoyiq"da yoritilgan asosiy masala olami sag'ir bo'lishi nuqtai nazaridan inson bilan olami kabir bo'lgan borliq o'rtasidagi munosabatni o'rganishdir. Nasafiy bu asarida mutakallimlar, faylasuflar va mutasavviflarning qarashlarini alohida-alohida bayon qilib, bu qarashlarning birortasini boshqasidan ustun qo'ymagan.[1:9] Mavzularni qanday bo'lsa, shundayligicha to'g'ridan-to'g'ri muhatoba uslubiga murojaat qilib, suhbat uslubida bayon etgan.[4:6-7]

Tahlil va natijalar. Mazkur asarning Aziziddin Nasafiy tomonidan yozilishining asosiy maqsadi tasavvufning asl mohiyatini bayon etish, valiylarning to'g'ri yo'llarini ko'z oldimizda gavdalantirish va yaqqol namoyon etish, shuningdek, yer yuzida mavjud bo'lgan buyuk zotlarning harakat va uslublarini ko'rsatish bo'lgan. Zero, asar mazmuniga nazar tashlansa, unda tasavvufning asosiy masalalari yoritilishi, ko'plab masalalarda turli mutasavviflardan iqtiboslar keltirilishi buni yaqqol namoyon etadi. Asar mavzusi bo'lgan olami kabir, olami sag'ir, solik-suluk munosabati, mabda' va maod, murid-murshid munosabati, ruh-nafs martabalari kabi ko'plab mavzular tasavvuf kitoblarining zaruriy mavzularidan sanaladi. Taxminan VIII-IX asr oldin yozilgan ushbu asar, unda yoritilgan mavzular va keltirilgan izohlar tufayli bu soha uchun juda muhim manba ekanligi ko'rinadi. Zero, asar mazmunidan o'rin olgan olam, odam, koinot va h.k. kabi ko'plab murakkab masalalarning o'rganilishi va bu tushunchalarning eng soddada tarzda yetkazilishi bayon etilgan holatni kuchaytiradi. Shuningdek, bugungi kunda

bu soha bilan shug'ullanuvchi mutaxassis va tadqiqotchilar uchun muhim mavzularni o'z ichiga olgani uchun Nasafiyning naqadar muhim mutasavvif ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. Nasafiy qator o'lkalar, mintaqalarda yashagan bo'lsa-da mavzu va mazmun jihatidan, boshqa mutasavviflarning tafakkur olamidan, tasavvuf muhitidan chetda qolmagan. Ayniqsa, tasavvufning eng murakkab masalalariga to'xtalishi va ularni eng tushunarli tarzda ochib berishi uning o'z davrida buyuk mutasavviflardan biri bo'lganligini ko'rsatadi. Manbalarda Nasafiyning biror-bir tariqatga mansubligi haqida ma'lumot uchramaydi. Hatto Aziziddin Nasafiy merosi va uning tasavvufiy qarashlari ustida tadqiqotlar olib borgan turk tadqiqotchisi Ibrohim Dyuzenning ta'kidlashicha, mutasavvifning biror tariqatga mansub bo'lganligi haqida gap bo'lishi mumkin emas. Zero, u egallagan ilmlari va yozgan asarlariga e'tibor qilinsa, bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi. Keyingi tadqiqotchilarning aniqlashicha ham u biror tariqatga mansub emas. Aziziddin Nasafiy ham Ibn al-Arabiy kabi tariqatlar ustidagi mutasavvifdir. Nasafiyning fikrlariga nazar tashlansa, u o'z qarashlarini vahdat-ul vujud masalasi atrofida asoslagani ko'rinadi. Zero, Ibrohim Dyuzen ham "Aziz Neseft'ye Göre Allah, Kâinat ve İnsan" (Aziz Nasafiyga ko'ra Alloh, koinot va inson) asarida bu holatga to'xtalib o'tadi va shu fikrda ekanligini bildirish maqsadida ko'plab dalillarni keltiradi. Muallif o'z asarida ko'rib chiqilgan vaziyatlarni asoslash maqsadida quyidagi jihatlarni sanab o'tadi: "Vahdat ahlining fikrlarini zikr qilishda "Ey darvesh" ta'birini qo'llashi va bu fikrlarni tasdiqlash maqsadida ba'zi she'rlarini dalil sifatida ko'rsatishi, ora-sira azizlar (azizon) nomi bilan vahdati vujudchilarni zikr qilishi, asarlarida umumiy kalom ahli va faylasuflarning fikrlariga ortiqcha e'tibor bermasligi, ko'proq vahdati vujudchilarning fikrlari ustida turishi"[2.287-288]-uning "Zubdat ul haqoyiq" asarida vahdat ul vujud ta'limoti va falsafasi pozitsiyada ekanligini anglatadi. Albatta, bu sanab o'tilgan holatlar Nasafiyning bu fikrda bo'lganini aniq ko'rsata olmasligi mumkin, ammo Dyuzenning Nasafiyning boshqa asarlarini ham o'rganib, bu fikrga kelganini ham unutmash kerak. Dyuzen ko'rsatgan dalillarga nazar solinsa, bu holat uning "Zubdat ul haqoyiq" asaridan boshqa barcha asarlariga taalluqli ekanligini ko'rinadi. Zero, Nasafiy ham bu asarida ko'p masalalarda Shayxi Akbar haqida so'z yuritadi va vahdat ul vujud ta'limoti g'oyalariga ko'proq to'xtalgan. Nasafiy o'z asarining boshidan oxirigacha mavzuni avvalo kalom ahliga, keyin faylasuflarga va nihoyat vahdat ahliga ko'ra talqin qiladi. Hatto ko'p masalalarda u kalom ahli va faylasuflarni ham ma'lum darajada haq deb hisoblagan. Bu Aziziddin Nasafiy falsafaga nisbatan salbiy munosabatda bo'lmaganligi, aksincha xayrixox bo'lganligidan dalolat beradi. Hatto uning fikricha, ko'p narsalar haqida fikr yuritish uchun ham falsafaga, ham kalomga ehtiyoj bor. Ammo bular ashyoning haqiqatini bizga ko'rsatmasligini qayd etgan. Hatto o'z asarida insonni boshqa jonzotlardan ajratib turuvchi asosiy narsa insoniy ruh ekanligi ekanligini ilgari surgan va inson bu ruh bilan haqiqatni idrok etadi hamda Haqning eshituvchi qulog'i, ko'ruvchi ko'zi bo'ladi deb ta'kidlagan. Shuningdek, uning mohiyatiga yetish uchun ham nafsni poklash va qalbni tozalash lozimligini ta'kidlagan. Bular faqat tasavvufning kashf va mushohada usuli bilan qo'lga kiritilishi mumkin degan mazmundagi fikrni ilgari surgan. Nasafiy o'z asarining boshidan oxirigacha tasavvufning bu usullarini himoya qilgan va solikning ularni egallashi uchun turli yo'llarni taklif qilgan. Nasafiyning masalalarga yondashuvi va mavzularni yoritishidan uning har jihatdan islom an'anasiga sodiqligini ham alohida ta'kidlash lozim. Zero, masalalarni yoritishda avval kalom ahlining, keyin faylasuflarning, so'ngra vahdati vujud ahlining fikrlariga o'rin bergan. Xususan, asarlarini o'zaro suhbat, nasihat va irshod tarzida yozgan. Bunday yondashuv islom an'anasiga ham begona emas. Zero, undan oldin yashagan

G'azzoliy ham o'z asarlarini shu yo'sinda yozgan. Xususan, G'azzoliy "al-Munqiz min ad-dalol" nomli asarini shu tartibda yozgan. G'azzoliy mazkur asarida dastlab mutakallimlar, keyin mashsho'iy faylasuflari, so'ngra imomat masalasi va nihoyat tasavvuf masalalariga o'rin bergan. Nasafiyning ilgari surgan g'oyalaridan kelib chiqib, fikr olamiga nazar tashlasak, ko'p masalalarda mutasavviflarning umumiy qarashlarini o'zi ham qabul qilganini ko'ramiz. Xususan, bu holat sayr-u suluk bilan bog'liq tushunchalarda ko'rinadi. Zero, baqo, fano, sa'id-shaqiy, suluk, tariqat, jazba, hollar va maqomlar kabi ko'plab masalalarda avvalgi so'fiylar va mutasavviflarning tushunchalarini takrorlagan. Ko'proq farq ko'rinadigan joylar umumiy ma'noda metafizik mavzulardir. Alohida ta'kidlash joizki, bu farqlar Nasafiyning chegaradan chiqib ketganini anglatmasligi kerak. Uning farqlari ko'proq uning vahdat-i vujud tarafdori ekanligidan kelib chiqadi. Zotan, ko'p o'rinlarda Ibn al-Arabiy kabi fikrlagan va o'z qarashlarini shu kontekstda asoslagan. Zero, u olam, ruh, uruj, olam-i jabarut va hudo-i mavhum kabi ko'plab masalalarda Arabiyning yaqin qarashlariga ega ekanligi ko'rinadi. Ba'zi tushunchalarda esa vahdat ahli deb ta'riflagan mutasavviflarning so'zlariga o'rin bermay, mavzuni islom mutakallimlarining qarashlaridan kelib chiqib yoritadi. Ayniqsa, juz'iy iroda, qadar masalasi va hashr-i ajsod kabi tushunchalarda bu narsa ko'zga tashlanadi. Buni amalga oshirishda kalom masalalariga ham qanchalik mohir ekani yaqqol kuzatiladi. Mana shu asar solik egallashi lozim bo'lgan bilimlarni o'z ichiga olgan tasavvufiy kitobdir. Aziziddin Nasafiyning "Zubdat ul haqoyiq" asari bugungi kunga qadar qator tillarga tarjima qilingan va uning izohlar ham yozilgan. Ayniqsa, mazkur asarning jahonning nufuzli qo'lyozmalar fondlarida saqlanishi va tasavvuf falsafasi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilarning bu asarga qayta-qayta murojaat etishi uning mukammal bir klassik asar ekanligini ko'rsatadi. "Zubdat ul haqoyiq" asari Murot Tamar va Vahdat Mohir tomonidan turk tiliga tarjima qilingan. Turk tilida amalga oshirilgan tarjimaga Sayyid Hofiz Muhammad Ayintobiyning (hij.1291) 1874-yilda Qohirada amalga oshirilgan arab tilidagi "G'oyatud-daqiq Dar tarjimai Zubdat ul-haqoyiq" nomli tarjimasi asos qilib olingan. Hoji Husaynzoda nomi bilan tanilgan Ayintobiy tarjimini (hij.1288) 1871-yil rabiul-avval oyida boshlangani qayd etilgan. Ayintobiy o'z tarjimasiga yozgan taqrizida "Zubdat ul haqoyiq" asarini "Mabda' va maod"ning qisqartirilgan shakli ekanini ta'kidlagan va uning iboralarining qisqaligi, murakkab masalalarni soddalashtirishini va o'quvchilarga ko'plab kitoblarni o'qishdan ham hosil bo'lmaydigan foyda berishini aytib, boshqa kitoblardan iqtiboslar qo'shmaganini ham ta'kidlagan. Uning qo'shgan yagona qo'shimchasi ba'zan ayrim bayt va misralarni keltirishi hamda zarur deb bilgan joylarda ba'zi masalalarga e'tibor qaratishidir. Ushbu tarjimada 2 ta bob, har bir bobda 3 ta asl va jami 37 ta fasl mavjud. Kitobda keltirilgan mavzular quyidagicha: Birinchi bob: Shariat ahlining ulug' olam haqidagi so'zlari, Hikmat ahlining ulug' olam haqidagi so'zlari, Vahdat ahlining ulug' olam haqidagi so'zlari. Ikkinchi bob: Inson va inson martabalari, suluk haqiqati va solikning sulukdan maqsadi. "G'oyatud-daqiq dar tarjima-i zubdatul-haqoyiq"ning Murod Tamar tomonidan soddalashtirilgan variantida istilohlarning saqlanishiga e'tibor qaratilgan, oyatlarning raqamlari va hadislarining manbalari keltirilgan. Kitobning tuzilishiga va mavzu sarlavhalarining aynan saqlanishiga e'tibor qaratilgan. "Zubdatul-haqoyiq"ning yana bir tarjimasi M. Hoji Husaynzoda tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, uni soddalashtirishni Vahdat Mohir bajargan. Ushbu tarjimada Sayyid Hofiz Muhammad Ayintobiyning "G'oyatud-daqiq dar tarjima-i Zubdatul-haqoyiq" nomli tarjimasi asos qilib olingan. Hoji Husaynzoda tarjimasini Vahdat Mohir soddalashtirgan asarda mavzu istilohlarini bir xil berishga harakat qilingan.

Biroq oyatlarning raqamlari va hadislarining manbalari keltirilmagan. Nasafiy tomonidan berilgan tartibga aynan rioya qilingan, ammo mavzu sarlavhalari to'liq berilmagani kuzatiladi. Bundan tashqari, "G'oyatud-daqiq"ning yana bir tarjiması Murod Toriq Yuksel tomonidan soddalashtirilgan holda "Zubdatul-haqoiq — Tanlangan haqiqatlar" nomi bilan nashr etilgan. Kitob boshida kimga tegishli ekani noma'lum bo'lgan "Tasavvuf" nomli she'r bor. Asarda so'zboshi bo'lmasa-da, soddalashtirish jarayonida qaysi nusxadan foydalanilgani ham ko'rsatilmagan. Bu ishonchli soddalashtirish ishi emas va ko'pincha xatolar ko'zga tashlanadi. Uning nusxasi Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanadi. "Zubdat ul haqoyiq" asarining o'zbek tilidagi tarjiması filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilov tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur tarjima turk va arab tillaridagi tarjimalardan tushuncha va iboralarining badiiy hamda falsafiy mazmuniga alohida e'tibor qaratilgani bilan farq qiladi.[3]

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, asar mazmuniga nazar tashlansa, har bir sarlavha alohida tasavvuf kitobi ekani ko'zga tashlanadi. Tasavvufning amaliy, kerak bo'lsa, nazariy jihatiga nazar solinsa, bu asarda ikki sohaning ham mavjudligini ko'rish mumkin. Agar biror kishi bu risolani qo'lga olib o'rgansa, tasavvuf ilmi haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ladi. Zero, u tasavvufning asosiy qoidalarini o'zida jamlagan asardir. Bu noyob risola haqiqatlarni aks ettiruvchi ko'zgu va barcha haqiqatlarni iloji boricha ochiq-oydin ko'rsatadigan kristall holatidadir. Bu risola bilan birga irfon ahli qalbiga yangi bir ruh bag'ishlanadi. Xulosa qilib aytganda, u o'zida mujassam etgan mazmun nuqtai nazaridan qadimgidek hozirgi zamon kishisi uchun ham katta foyda keltiradigan muhim asardir. Mazkur asarda aks etgan g'oya va qarashlarni ilmiy asosda o'rganish tasavvuf falsafasini yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Azîz Neseî, Zübdetü'l-Hakâik, çev. Murat Tamar, İnsan Yayınları, İstanbul, 1997, s. 9.
2. İbrahim Düzen, Aziz Neseî'ye Göre Allah, Kâinat ve İnsan, Furkan Yayınları, İstanbul, 2000. -S.287-288.
3. Комил инсон ҳақида тўрт рисола. Форс-тожик тилидан Нажмиддин Комилов таржимаси. Тошкент.: "Маънавият", 1997.-Б. 110.
4. Neseî A. Gayetü'd-Dekâik Der Tercüme-i Zübdetü'l-Hakâik, (Trc. Hafız Mehmet Ayıntabî). İstanbul Büyükşehir Belediyesi Osman Ergin Yazmaları, no: 297/7. 1291. -S. 6-7.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).